

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

TARJIMONLIK FAKULTETI

OSIYO MAMLAKATLARI TILLARI KAFEDRASI

R E F E R A T

**MAVZU: Yapon tilida chet tilidan kirib kelgan so'zlarning
semantik ma'nolari**

Tarjimonlik fakulteti
4-a yapon tili guruhi talabasi
Soliyeva Mubina

Ilmiy rahbar: D.To`rayeva

Samarqand – 2013

Yapon tilida chet tilidan kirib kelgan so'zlarning semantik ma'nolari haqida

(Tayanch so'zlar: leksema, semantik ma'no, neologism - gairaigo, qisqartma so'zlar ,katakana)

“Vatanimizning kelajagi , xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro’-e’tibori avvalambor farzandlarimizning, unib o’sib ulg’ayib, qanday inson bo’lib hayotga kirib borishiga bog’liqdir. Biz bunday o’tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak” – deya ta’kidlagan muhtaram yurboshimiz I.Karimov yoshlar uchun imkoniyatlar olamini ochib berdilar. Bugun “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning sifat bosqichida turar ekanmiz, har tomonlama yetuk va bilimli yoshlarga ehtiyoj tobora ortmoqda. Ayniqsa chet-tilini o’rganish uchun yetarlicha sharoitlar mavjud. Xususan I.Karimovning 2012yilda “Chet tillarini o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlari bu sohani yanada izchillashtirishga xizmat qiladi . Bu o’z navbatida biz kabi yoshlarga ham qo’l keladi. Chunki biz ham tilni o’rganayotgan talabalar har tomonlama yetuk bo’lishimiz uchun chet tilini har tomonlama, hatto eng oddiy jihatlatini o’rganishimiz maqsadga muvofiq sanaladi.

Bugun biz o’rganayotgan yapon tilidagi chet –tilidan kirib kelgan so’zlar borasida fikr yuritamiz. Dunyoda birorta ham sof til bo’lmaydi. Tillarning lug’at jamg’armasi muntazam o’zgarishda, takomilda bo’ladi. Eskirgan , ishlatilmay qolgan , talabdan chetga surilgan leksik birliklar o’rnini, iste’molchilarning ehtiyojini qondira oladigan yangi leksik birliklar egallaydi. Til, ayniqsa uning lug’ati doim o’sish-o’zgarishda. Bunday o’sish-o’zgarish tez va uzil-kesil sodir bo’lmaydi. Shu sababli zamoniyligi jihatidan har xil birliklar yonma-yon yashab turadi. Lug’at boyligida zamoniyligi jihatidan ikki asosiy qatlam mavjud: zamonaviy qatlam va zamondosh qatlam.Zamonaviy qatlamga bugungi til amaliyotida odatdagi, rasmona deb qaraluvchi leksemalar kiritiladi. Bu qatlamdagi leksemalar na yangilik va na eskilik bo’yog’iga ega bo’lmaydi. Leksemalarning ko’pchiligi – xuddi shunday.Zamonaviy qatlamga mansub deb belgilashda leksemaning yakka shaxs-lar nutqidagi mavqei emas, balki umumtildagi mavqei

asosga olinadi. Leksemani zamonaviy qatlamga kiritishda ularning nutqda ishlatilish miqdori ham asosga olinmaydi. Nutqda ko'p ishlatiladigan leksema odatda zamonaviy qatlamga mansub bo'ladi. Zamonaviy qatlamga, bulardan tashqari, nutqda oz ishlatiladigan leksemalar ham kiritiladi. Zamonaviy qatlamga kiritiluvchi leksema shu til egalarining barcha a'zolariga tanish bo'lishi ham, barchaning nutqida ishlatilishi ham shart emas. Har bir sohaning terminologiyasi bilan odatda shu sohaning vakiligina tanish bo'ladi, boshqalarga bu terminlarni bilish zaruriyati ham bo'lmaydi; umumnutqda bunday terminlar ishlatilmaydi ham. Shunga qaramay terminlar zamonaviy qatlamga kiritilaveradi. Zamonaviy qatlamga kiritiladigan leksema bir asosiy talabga javob berishi kerak: na yangilik va na eskilik bo'yog'i bo'lmasligi lozim. Ko'rinadiki, leksemalarning zamoniyligini aktiv-passiv qatlamlar deb nomlash va tavsiflash to'g'ri bo'lmaydi. Aktiv-passivlik lug'at boyligiga boshqa jihatdan – miqdoriy jihatdan yondashish bo'lib, lug'at boyligini bunday o'rganish ham, albatta, muhim amaliy va nazariy xulosalarga olib keladi. Yangilik yoki eskilik bo'yog'i bor leksemalar lug'at boyligining zamondosh qatlamini tashkil qiladi. Bunday qatlam tilning har bir taraqqiyot bosqichida mavjud bo'ladi, chunki lug'at boyligi doim o'sib-o'zgarib turadi. Shu sababli lug'at boyligida zamondosh qatlam ham yashaydi. Zamondosh qatlamda o'zaro biri ikkinchisining aksi bo'lgan hodisalar mavjud: yangilik bo'yog'i bor leksemalar va eskilik bo'yog'i bor leksemalar.

Yangilik bo'yog'i mavjud bo'lgan leksemalarga neologizmlar yoki yangi paydo bo'lgan so'zlar deyiladi.¹ Mazkur tushuncha o'zbek tilida neologizm deyilsa yapon tilida 外来語—gairaigo ya'ni chet tilidan o'zlashgan so'zlar sifatida tushuniladi. Yapon tilida chet tillaridan olingan o'zlashma so'zlar ko'p hisoblanadi. O'zlashma so'zlarning ko'pchiligi ingliz tili bilan bog'liq sanaladi. Biroq fransuz , nemis, portugal, tillaridan o'zlashgan so'zlar ham uchraydi. Shu boisdan yaponlar chet tili so'zlarini ya'ni 外来語—gairaigoni katakana alifbosida yozadilar. Katakanada yoziladigan so'zlarning kelib chiqishi chet tilidan

¹ Sh.Rahmatullayev "Hozirgi adabiy o'zbek tili". Toshkent "Universitet " 2006. 88-89 b.
Sh.Mahmadiyev "hozirgi o'zbek adabiy tili". Samarqand 2010.

o'zlashgan so'zlar bilan bog'liq. Shuningdek yaponlar chet tili so'zlari asosida ham o'z so'zlarini tuzadilar. Chet tilidan kirib kelgan so'zlar turli jihatlariga ko'ra tasniflanadi. Buni quyidagicha tartibda tasniflash mumkin:

食べ物—Tabemono (ovqat va ichimliklar) :

ジャーム—jam murabbo,

ハム-vetchina ;

チーズcheese- pishloq ;

ミルク—milk-sut;

ドリンク—drink-ichimlik;

ワイン—vine- vino(ichimlik turi)

デザート—dessert- disert-(ovqatdan so'ng yeyiladigan shirinliklar)

アイスクリーム—Ice cream—muzqaymoq;

ホットドッグ—hot dog –xot dog;(xotdog)

ジュース—juice- sharbat (sok)

ハンバガー - hamburger-gamburger kabilar.

衣服—**ifuku** –kiyimlar : スカート-skirt- yubka;

スーツ-suit –kostyum;

スカフ—scarf-sharf;

シャツ—shirt- ko'ylak;

病気—**byouki**-kassaliklar :インフルエンザ—influence-gripp;

ストレス-stress- stress(kuchli asab buzilishi);

ウィルス—virus- virus;

Va boshqa so'zlar :スケジュール—schedule- vaqt tartibi,kun tartibi;

デバット-debate-munozara, muhokama;

ゲーム—game-o'yin;

ビデオ—video-vidiyo;

レストラン—restaurant-restoran;

タイムカプセル—time capsule- vaqt kapsulasi yoki dorisi;

イメージ—image – tasavvur;

アイディア—idea- g’oya;

リュックサック—rucksack- ryukzak (narsa kiyimlar uchun katta sumka)

アナウンス—announce –xabar bermoq, e’lon qilmoq;

ニュース—news- xabarlar, yangiliklar;²

Keltirib o’tilgan bu kabi o’zlashma so’zlar bugungi yapon tilida faol leksemalar tarkibiga kiradi. Ularning kundalik turmushlarida har kuni qo’llaniladi. Yaponlarni o’zlari ta’kidlaganlaridek ular chet tili so’zlarini tez o’rganuvchilar hisoblanishadi. Bir tomondan so’z boyligi ko’payishi va faol leksemaga aylanuvchi gairaigolar tez-tez nutqda ishlatiladi. Biroq ba’zi so’zlar borki bu yapon tilida mavjud so’z sanalsada ,chet-tilidan kirib kelgan so’zlarni ishlatishadi. Masalan :喫茶店—kissaten bu qahvaxona degan ma’noni bildiruvchi so’z hisoblanadi. garchi shunday bo’lsada bugunda mazkur so’z o’rniga ingliz tilidan kirgan カッフェ—café- qahvaxona so’zi ommalashmoqda. Bunday so’zlar anchani tashkil qiladi. (会議—kaigi-コンGRES—congress- majlis,)

Mavzu doirasida yana bir fikrni keltirish mumkin. Bu yapon tilida chet tilidan kelgan so’zlarning qisqartirib aytilishi. O’zbek tilida ham bunday holat mavjud. Yapon tili leksemasida o’zlashgan gairaigolar semantik ma’nolarini yo’qotmay qisqartirib aytilishi holatlari bor Jumladan ingliz tilidagi Pesonal Computer- パーソナル コンピュータ ya’ni shaxsiy kompyuter- notebook ma’nosidagi so’z bugungu kunda yapon tilida パソコン pasokon (per com) saklida yuritiladi. Yana misol sifatida building –inshoot ,bino so’zini olishimiz mumkin. Yapon yilida avval ビルディング—shaklida ishlatilgan bo’lsa hozir qisqartirilib ビル— deb aytiladi. Bunday qisqartirib ishlatilish nafaqat chet tilidan o’zlashgan so’zlarda ,balki asl yapon tili so’zlarida qisqartirib aytish shakllari bor. Bunday qisqartitishlar bir tomobdan qulay hamda tushunarlik bo’lsa yana bir jihatdan yozma nutqda

² みんなのにほんご II-Minnano nihongo II.Tarjima va grammatatik tahlil . O’zbekiston –Yaponiya markazi.130b

osonlik hisoblanadi.Yapon tilida so'zlarni qisqartirish 省略 しますー shyouryakushimasu deb aytiladi.(qisqartma so'zlar degani) .Shuningdek ba'zi ingliz tili yoki o'zlashma so'zlarni ot+fe'l shaklida qilib ishlatish usuli ham bor.Bunda ot so'z turkumidagi so'z neologism –gairaigo bo'lib ,fe'l so'z turkumi esa yapon tilidagi bajarmoq,qilmoq, amalga oshirmoq, shug'ullanmoq ma;nolaridagi fe'llar bilan birga ishlatiladigan so'zlar bor.Chunonchi:スポーツ (sport) (を) しますー (o)shimasu – ya'ni sport bilan shug'ullanmoq.

テニスしますーtennisu o shimasu- tennis o'ynamoq;

ピアノを弾きます (弾く) –piano o hikimasu(hiku)-pianino chalmoq;

イメージをしますーimeji o shimasu-tasavvur qilmoq;

シャツを作る (作ります) –shyatsu o tsukuru (tsukurimasu)- ko'ylak tikmoq kabilardir.

Mavzu doirasidan xulosa qilib aytish mumkinki, yapon tilida o'zlashma leksemalar ko'p va ular aktiv. Bu so'zlarning semantic ma'nolari o'z ma'nosini **deyarli** yo'qotmaydi ,ba'zan yo'qotishi hollari bor. Lekin bu to'la ma'noni yo'qotish bo'lmaydi. Chet tili o'zlashma so'zlar hisobiga yapon tili ham boy leksemasini tashkil etmoqda. Shu boisdab ingliz tilini sal bo'lsada tushunadigan odam uchun yapon tilini o'rganish oson bo'ladi. Bu o'z navbatida mavzuga oid bo'lgan neologizmlar yoki gairaigolar natijasi hisoblanadi. Aksariyat gaplarda gairaigolardan foydalanishadi. Bular kashfiyot ,yangi texnika terminlari singari so'zlar ham sanaladi. Shuning uchun maxsus katakana yapon tili alfaviti bor.Va bu o'zlashma so'zlarni yozishda ishlatiladi.Aynan shu jihat yapon tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. I. Karimov “yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” .Toshkent .Ma’naviyat. 2008.
2. I. Karimovning “Chet tillari o’rganish tizimi yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”gi qarori. 2012-yil.
3. ”Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qonuni. 1997-yil.
4. Sh. Rahmatullayev “Hozirgi adabiy o’zbek tili”. Toshkent “Universitet “ 2006.
5. みんなのにほんご II-Minnano nihongo II. Tarjima va grammatatik tahlil . O’zbekiston –Yaponiya markazi.
6. ニューアプローチ new approach japanese intermediate course II qism.